

**FRANSUZ TILI DARSLARIDA LEKSIK BOYLIKNI SHAKLLANTIRISHGA DOIR  
YONDASHUVLAR.**

**Qarshiyeva Maxliyo Shodiyorovna**

*Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi, Chorvachilik va Biotexnologiyalar Universiteti*

*Akademik litseyi*

*Tel: 93 3504194*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola fransuz tili darslarida leksik ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash haqida bo'lib, o'quvchilarning chet tilidan lug'at boyliklarini boyitishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar :** leksik ko'nikma, so'z tahlili, potensial lug'at, so'z o'yinlari;

Leksikologiya umumiy, xususiy, tarixiy va qiyosiy bo'linadi. Xorijiy tillarda umumiy leksikologiya deb ataladi, bu umumiy tilshunoslikning har qanday tilning lug'atini o'rganadigan bo'limi bo'lib, leksik universallarga tegishlidir. Umumiy leksikologiya leksik tizim tuzilishining umumiy qonuniyatları, dunyo tillari lug'at boyligining faoliyati va rivojlanishi masalalari bilan shug'ullanadi.

Leksika (yunoncha.lexis – so'zga oid, lug'aviy) – tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum qonun qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to'xtovsiz uzgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibida yangi so'zlardan paydo bo'lishi mavjud so'zlardan ayrimlarning eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rindi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika boyib boradi. Chet tilini fan sifatidagi asosiy vazifasi bilim oluvchilar tomonidan muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishini ta'minlash, ya'ni so'zlash, matnlarni o'qish, tarjima qilish, tinglab tushunish va yoza olish kabi kommunikativ malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Til o'rgatish jarayonida leksik ko'nikma va malakalarni shakllantirishda o'ziga xos usullarni qo'llash orqali darsda yuqoriqoq samaradorlikka erishish mumkin.

Leksikani o'rgatish jarayonida ma'lum bir qoida va prinsiplarga amal qilish bugungi kun o'qituvchidan albatta talab qilinadi. Bu prinsiplar quyidagilarda aks etadi.

1) Chet tili o'rgatishda lug'atni oqilona chegaralash prinsipi. Bunda tanlash birliklari va tanlash mezonlari bir biri bilan muvofiqlashtiriladi.

2) Til o'qitishda leksik birliklari taqdimoti muayyan maqsadga qaratilganligi prinsipi: leksik operatsiyani mustahkamlash uchun qo'llanadigan birliklar aniq ko'nikmani hosil qilishga mo'ljallanadi va boshqa birliklar bilan uyg'un holda ishlatiladi.

3) Leksik birliklarning lingvistik xususiyatlarni o'zlashtirishga aloqador psixologik tabiatni hisobga olish prinsipi. Bunda taqdimot va mashq qilish davrlarida leksik birliklarining mavhum tushunchasi ifodalayotganlari tariflash vositasida, narsaga tegishlilari ko'rgazmalilik, yordamida, sistema hosil qiladigan (ma'nodosh teskari ma'noli, mavzuga oid, dunyo tomonlari – sharq, g'arb, shimol va janubni ifodalovchi) leksik birliklar qiyoslash va guruhash yo'li bilan yordamchi so'zlar esa kontekstsda beriladi.

4) Ta'limning didaktik va psixologik qonuniyatlarini hisobga olish prinsipi: har bir leksik birlik taqdimot, mashq qilish va qo'llash bosqichlarida brogan sari kengaytirib boriladi.

5) Ma'noviy (semantik) umumlashtirishga suyanib ish ko'rish prinsipi: leksik birlik mazmun rejasini tahlil etish yo'li bilan birliklar o'rtasidagi va ko'p ma'noli birlikning semantic variantlari orasidagi o'xshashlik hamda tafovut belgilarini aniqlashga erishiladi.

6) Nutq malakalarini o'stirish va shu jarayonda leksikani egallahni birha olib boorish prinsipi: leksikani egallasah jarayoni materialni o'zlashtirish va ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

V.A.Buxbinder tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tamoyillarning aniqlanishi, shubhasiz, leksika o'qitish metodikasiga qo'shilgan kata hissa bo'lib, ulardan hech birining ahamiyatini inkor qilib bo'lmaydi, ularning aksariyati o'z- o'zidan ma'lum bo'ladigan "haqiqat" – aksiomalardir. Bu tamoyillarga va ularning aniq ifodalanishiga bo'lgan ehtiyojni aslo inkor etmasdan, shuni qayd qilish mumkinki, ular leksikani o'qitish jarayonini yetarli darajada qamramaydi. M.Choriyev o'z ilmiy tadqiqot ishida leksikani o'rgatishning asosiy tamoyillarini leksik ko'nikmaning psixologik – metodik shakllanish mohiyati, ongi mertodning umumuslubiy tamoyillari, og'zaki nutqqa o'rgatishning asosiy qonuniyatlarini va leksikani egallah bosqichlarini tashkil qiladigan harakatlarning o'ziga xosligini nazarda tutgan holda yanada aniqlashtirib, quyidagicha sharhlaydi:

1) Xorijiy til leksikasini o'rgatishda so'zlarning adekvat aloqalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tamoyillar.

2) Leksik birliklarning tipologik xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.

3) So'zning barcha aspektlari ustda kompleks ishlash tamoyili.

4) Leksikaning o'zlashtirilishida retseptiv va reproduktiv – produktiv mashqlar birligi tamoyili.

5) Kontekstli va kontekstsiz mashqlarda so'zni albatda o'zlashtirish tamoyili.

6) Leksik birlikni maksimal ko'p kontekstlarda berish tamoyili.

7) Asosiy grammatik shakllar va funksiyalar orqali o'zlashtirish tamoyili.

8) Bir tilli va ikki tilli leksik mashqlarda mushtarak foydalanish tamoyili.

9) Leksikani o'zlashtirishgsa qaratilgan faoliyat motivatsiyalarini kuchaytirish tamoyili.

10) So'z o'zlashtirishda funksiyonallik tamoyili.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tamoyillar, asosan, leksikani o'rgatishning psixologik va psixofiziologik uslublarini asoslash, o'quv jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish asoslarini yaratish uchun xizmat qiladi. Ushbu tamoyillarning barchasi birgalikda o'quv materiali hajmini aniqlash, uni tizimlashtirish, mashqlar turlarini tanlash hamda ular bilan ishlash yo'llarini belgilash, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida leksikaga o'rgatishni uyuştirish kabi masalalarni hal qilish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Chet tilini fan sifatidagi asosiy vazifasi ta'lim oluvchilar tomonidan muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishini ta'minlash, ya'ni so'zlash, matnlarni o'qish, tarjima qilish, tinglab tushunish va yoza olish kabi kommunikativ malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Til o'rgatish jarayonida leksik ko'nikma va malakalarni shakllantirishda o'ziga xos usullarni qo'llash orqali darsda yuqoriq samaradorlikka erishish mumkin.

"Leksik ko'nikma" atamasini bir qancha metodist olimlarning ilmiy izohlari orqali yaxshiroq anglashimiz mumkin. S.F.Shatilov "Leksik ko'nikma"ni ikki qismidan iborat metodik tushuncha ekanligini, ya'ni nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash deb tariflaydi. Olimning fikricha, bu nutqiy leksik ko'nikma bo'lib, undan tashqari, lisoniy leksik ko'nikma ham shakllanadi. So'zni tahlil etish jarayoni, ya'ni so'z yasash, so'z birikmasini tuzish kabilar leksik materialni ong ishtirokida qo'llashdek lisoniy leksik ko'nikma nazariy isbotlangan. [Shatilov, 1977,43]. Demak, leksikaning nutqiy va lisoniy ko'nikmalari ma'lum.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi", Toshkent "O'qituvchi" 1996
2. Jabborov V. "Ta'lim oluvchilarning chet tilidan mustaqil ishlari", Toshkent, "Oqituvchi", 1984
3. Shatilov S.F. Методика обучения немецкому языку в средней школе "Л Просвещение" 1977
4. <http://www.google.uz>